

SURXON tongi

2024-yil
27-noyabr
(chorshanba)
48-son
(17 929)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan

surxontongi.uz

t.me/surxontongi

BEKAT SAVDO NUQTASI EMAS...

BUGUNNING GAPI



Aqlii bekatlar aholiga xizmat ko'rsata boshladi-yu, yo'lovchilar bekatga kirishga iymanadigan bo'lib qoldi. Savdo nuqtasiga aylanib qolgan bekatga, nimadir xarid qilmasangiz, kirishga tortinasiz-da. Shunday bo'lgach, yo'lovchi issiqda quyosh tig'ida, sovuqda esa diydorabgina ko'chada avtobus kutishga mahkum.

Aslida yo'lovchiga qulaylik yaratish maqsadida ichimlik, gazeta va kitoblar sotilishi yo'lga qo'yilishi kerak bo'lgan bekatlarni qurgan tadbirkorlar u yerni savdo nuqtasi yoki ovqatlanish shoxobchasiga aylantirib olishgan. Shishali devorlar qaysi ulov kelayotganini ko'rish uchun shaffof holda bo'lishi kerak bo'lgan bo'lsa, ishbilarmonlar devorlarni turli reklama qog'ozlari bilan o'rab, o'zlaricha shinam ko'rinishga keltirishgan. Albatta, bunday holatga chek qo'yib, bekatlarni yo'lovchilarga qaytarish lozim.

Aslida bekat qanday bo'lishi kerak? Tadbirkorlarchi? Bekatlarda qanday faoliyat yuritilishi kerak? Buning aniq rejasi ishlab chiqilganmi? Tadbirkor va ishbilarmonlarga huquqiy asoslar tushuntirilganmi? Ushbu savollarga javob topish zaruriy surishtiruv va o'rganish ishlari olib borishni talab etadi. Shahrimizda namunaviy loyiha asosida bekatlar tashkil etilmoqda. Ammo nima bo'lganda ham bekat — o'z nomi bilan bekat. Shunday ekan, u yer yo'lovchiga, aholiga xizmat ko'rsatishi lozim. To'g'ri, ehtiyot shart, ortiqcha ovragarchiliklarning



oldini olish maqsadida bekatda ochilgan do'kondan xaridning amalga oshirilishi u yerda xizmat ko'rsatayotgan tadbirkorlarimiz uchun daromad manbai bo'lib xizmat qilmog'i lozim. Ayni talablarni inobatga olgan holda Termiz shahrida namunaviy

loyiha asosida bekatlar qurilishi davom etmoqda. Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ayni loyiha asosida tashkil etilayotgan bekat bilan tanishdi. Mutasaddilar bekatda yo'lovchilar uchun yaratiladigan qulayliklar, jumladan, shahar jamoat transporti

xaritasi, avtobuslarning kelish vaqti, manzilgacha bo'lgan masofa va yetib borish daqiqasi, avtobuslarning raqamlari hamda yo'nalishlari haqida axborot beruvchi tablolar o'rnatilishi haqida axborot berdi.

Viloyat rahbari bekat o'z nomi bilan, birinchi navbatda, yo'lovchilar uchun xizmat qiladigan joy bo'lishi, hozirgi kunda esa deyarli barcha bekatlar savdo nuqtasiga aylanib qolganligini ta'kidlab, bu borada mas'ullarga tegishli vazifalarni belgilab berdi. Shuningdek, jamoat transportlariga o'rnatiladigan yo'nalishlar namunalari bilan ham tanishildi.



"YASHIL MAKON" ORZUSI HAQIQATGA AYLANMOQDA

Kuni kecha Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida ishtirok etib, nutq so'zlagan edi.

Yig'ilishda boshqa masalalar qatori 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb nomlanishi ko'p jihatdan bugungi kunda butun dunyoda kuzatilayotgan global ekologik inqirozning oldini olishga qaratilgan keng ko'lamli tadbir sifatida baholash mumkin.

laganligidan dalolatdir. Davlatimiz rahbari tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasiga alohida e'tibor qaratilayotganligi ham bejiz emas. Zero, so'nggi yillarda dunyo miqyosida ekologik inqirozlar avj olib, tabiiy ofatlar yuz berayotganligi, hammasidan ham tashvishlanarlisi, tabiat hodisalari ilgari ma'lum bir mavsumda sodir bo'lgan bo'lsa, bugun bu talafotlar mavsum va fasl tanlamayotir. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik oqibatida kutilmagan tabiiy ofatlar yuz berayotganligi barchamizni ogohlikka chorlashi zarur.

Mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasining hayotga tatbiq etilishi so'nggi yillarda xalq farovonligi va yurt obodligi yo'lida amalga oshirilayotgan ezgu islohotlarning yaqqol isboti desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizning har bir go'shasida mahalliy turizm kompaniyalari bilan 411 ta shartnoma hamda 6 ta memorandum imzolandi. Shuningdek, xalqaro turizm yarmarkasida ishtirok etgan Tojikiston turizm qo'mitasi mutasaddilari ham ushbu davlatda o'tkazilgan xalqaro turizm yarmarkasida ham viloyatimizning mazkur "Eng yaxshi xorijiy stend" nominatsiyasida g'olib bo'lganligini e'tirof etib, yarmarkaning sertifikat va statuetskasi tatanali topshirdi.

boy o'tdi. Yarmarkada viloyatimiz stendi ham namoyish etilib, yakunda Surxondaryo viloyati milliy urf-odatlari, an'analarini aks ettiruvchi eng yaxshi stend nominatsiyasida g'olib deb topildi. Uch kun davomida o'tkazilgan xalqaro turizm yarmarkasi doirasida delegatsiyamiz tomonidan xorijiy va mahalliy turizm kompaniyalari bilan 411 ta shartnoma hamda 6 ta memorandum imzolandi. Shuningdek, xalqaro turizm yarmarkasida ishtirok etgan Tojikiston turizm qo'mitasi mutasaddilari ham ushbu davlatda o'tkazilgan xalqaro turizm yarmarkasida ham viloyatimizning mazkur "Eng yaxshi xorijiy stend" nominatsiyasida g'olib bo'lganligini e'tirof etib, yarmarkaning sertifikat va statuetskasi tatanali topshirdi.

Dunyoning biror-bir nuqtasida sodir bo'layotgan ekologik inqirozlar ma'lum bir mintaqada hamda yondosh mamlakatlar tabiatiga ham jiddiy zarar yetkazishi mumkinligi bugun hech kimga sir emas. Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish maqsadida yurtimizda atrof-muhitni asrash va obodonlashtirish masalasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, viloyatimizda ham daraxt ko'chatlarini ekish, bog'lar buniyod etish borasida olib borilgan tadbirlar o'z samarasini bermoqda.

Mana, bugun ko'rib, bilib turibsizki, Termiz shahri ko'chatlari, tashkilot va idoralar atroflari daraxtzorlar bilan qoplangan. Bu o'z vaqtida qilingan amaliy sa'y-harakatlar ijobiy samara bera bosh-



Davomi 3-sahifada.

ZAR QADRI ZARGARGA MA'LUM

PRESS-TUR



Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan Termiz shahridagi "Surxon-nashr" nashriyoti hamda "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" gazetalarini tahririyatiga press-tur tashkil etildi.

Mahalliy jurnalist va bloggerlar, dastlab, "Surxon-nashr" nashriyatida kitob chop etish jarayonlari bilan yaqindan tanishdi. Ular muharrirlarning qo'lyozmani tahrirlash, dizaynning muqova va suratlarini ishlash, montaj jarayonida elektron fayl ko'rinishidagi qo'lyozma sahifalarini to'g'ri joylashtirish, xomaki nusxani maxsus qoplamaga tushirib, bosma qoliplar tayyorlash, kitobni bosish, buklash, tikish, muqovalash, kesish va qadoqlash ishlari, shuningdek, buyurtmalar asosida bajarilayotgan poligrafiya xizmatlarini ko'zdan kechirdi.



chiqarilgan eng so'nggi turdagi 30 ga yaqin uskunada ish yuritmoqda. Xitoy, Hindiston, Eron va rossiyalik soha mutaxassislari bilan o'zaro tajriba almashib, faoliyatimizni yildan-yilga kengaytirib boryapmiz. Shu kuni ishtirokchilar "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" gazetalarini tahririyatida ham bo'lib, qizg'in ish jarayoni bilan yaqindan tanishdi. Hindiston va Xitoydan keltirilgan texnologiyalarning chop etish quvvati, viloyatdagi gazetalarining yaratilishi va bunda nimalarga ahamiyat qaratilishi haqida fikr almashdi. Mutaxassislar bosma nashrlarning chop etilishiga doir turli savollarga javob berdi.

XALQARO TURIZM YARMARKASI: SURXONDARYO G'OLIB

Surxondaryoliklar zamon bilan bo'ylashsa-da, aslo milliyligini, milliy qadriyat-u an'analarini unutmaydi. Hayot tarziga singdirilgan, milliylikimiz tarannum etilganda shirin shevamiz, ko'ringanda bo'y-bastimiz-u liboslarimizda bari mujassam. Mehmonlar-da surxoncha muhitni his etadi. Taomlarimiz toti ham yegan insonning xotirasiga muhlanadi va albatta, yana va yana ana shu ta'mni, milliylikni sog'inaveradi. Shu sabab ham vohada turizm sohasi rivoj topmoqda. Mehmonlar qadami uzilmay, Surxondaryo degan manzilning butun dunyoga dong'i doston bo'lgan. Oltin voha nafaqat milliy qadriyat va udumlari bilan, go'zal tabiati, purviqor tog'lari, sharsharalari bilan ham mahliyo etar. Qolaversa, ziyorat turizmi, tarix va bugunni bog'lovchi ko'priklar vaqifasini bajaruvchi madaniy meros obyektleri uchun ham sayr-u sayohat manzili sifatida sayyohlar aro ma'lum-u mashhur.

"CAEX" xalqaro ko'rgazmalar markazida o'tkazilgan "Ipak yo'lida turizm" 29-Toshkent xalqaro turizm yarmarkasida ham Surxondaryo viloyatining ishtiroki e'tibor va e'tirofga loyiq bo'ldi. Turizm mahsulotlarini targ'ib qilish, hamkorlik uchun ishbilarmonlik aloqalari va munosabatlarini o'rnatishga xizmat qiluvchi, Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ko'magida o'tkaziladigan mazkur yarmarka manfaatli kelishuvlarga



IFTIXOR

boy o'tdi. Yarmarkada viloyatimiz stendi ham namoyish etilib, yakunda Surxondaryo viloyati milliy urf-odatlari, an'analarini aks ettiruvchi eng yaxshi stend nominatsiyasida g'olib deb topildi. Uch kun davomida o'tkazilgan xalqaro turizm yarmarkasi doirasida delegatsiyamiz tomonidan xorijiy va mahalliy turizm kompaniyalari bilan 411 ta shartnoma hamda 6 ta memorandum imzolandi. Shuningdek, xalqaro turizm yarmarkasida ishtirok etgan Tojikiston turizm qo'mitasi mutasaddilari ham ushbu davlatda o'tkazilgan xalqaro turizm yarmarkasida ham viloyatimizning mazkur "Eng yaxshi xorijiy stend" nominatsiyasida g'olib bo'lganligini e'tirof etib, yarmarkaning sertifikat va statuetskasi tatanali topshirdi.

MEZBONLAR BO'SH KELMADI

Termiz shahridagi "Surxon" sport majmuasida bir necha kun davomida "Besh tashabbus" olimpiadasi doirasidagi stritbol sport musobaqasining respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda yurtimizning barcha hududlaridan kelgan 252 nafar sportchi yosh ishtirok etdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 16-21 yoshli xotin-qizlar o'rtasida mezbon viloyat jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Navoiy va Jizzax viloyati vakillari ikkinchi va uchinchi o'rinlarni zabt etdi. 22-26 yoshli ishtirokchilar orasida esa Surxondaryo, Navoiy hamda Namangan jamoalari peshqadamlik qildi. Erkaklar o'rtasidagi bahslarda esa



vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi, sport boshqarmasi va yoshlar ishlari agentligi tomonidan kubok, diplom, medal va esdalik sovg'alari topshirildi.

Nargiza MUSAYEVA

SPORT



Abdumalik ALLAMURADOV,
Bandixon tumani hokimi

Bandixon tumanida ham qisqa davr ichida barcha jabhada rivojlanish kuzatilmoqda. Tumanga yo'li tushganlar yaxshi biladi. Kechagi Bandixon bilan bugungisining farqi bor. Qay mahallada bo'lmang, o'zgarishlarga, yangilanishlarga guvoh bo'lasiz. Bu tuman ahlining hayotiga, yashash tarziga-da o'z ta'sirini ko'rsatgan. Odamlar amalga oshirilayotgan islohotlarga javoban jamiyatda o'z o'rnini topishga kirishgan. Yoshlar esa ta'lim-tarbiya olish, kasb-hunar egallash, tanlagan kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishga bel bog'lagan. Bu, albatta, tumanning ko'plab yutuqlarga erishishiga, yuqori marra va ko'rsatkichlarni qayd etishiga xizmat qildi.

“MARRANI KATTA OLIB, MAQSADGA ERISHAMIZ”

KAMBAG'ALLIKDAN FAROVONLIK SARI

So'nggi besh yilda tumanda tadbirkorlar soni 3 barobarga, sanoat mahsulotlari hajmi 6,2 barobarga, xizmat ko'rsatish 2,3 barobarga oshgani hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barobarida aholi turmush tarziga ham ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, har birimizning oldimizga qo'ygan muhim maqsadlarimizdan biri bu uzoq yillardan buyon to'planib qolgan muammolarni ham hal qilib, xalqimizning farovon yashashi uchun munosib shart-sharoitlar yaratishdir. Shuning uchun Bandixon tumanini yanada taraqqiy ettirish, aholi farovonligini oshirish, yurtimizni obod, go'zal va farovon maskanga aylantirish eng asosiyi "Xalqni rozi qilish" uchun mehnat-u harakatdan to'xtamaslik lozim.

Bu maqsadlarga erishish uchun kelgusi besh yilda iqtisodiyotni rivojlantirish borasida marrani juda katta oldik. Jumladan, sanoat ishlab chiqarish 106,6 foiz, qishloq xo'jaligi hajmi 105,3 foiz, xizmatlar hajmi 115,6 foiz va qurilish-pudrat ishlari 108,8 foizga yetkaziladi. Sanoat ishlab chiqarish hajmida o'sishni ta'minlashda har bir sanoat tarmog'iga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida mavjud korxonalarini modernizatsiya qilish va yangi korxonalarini ishga tushirish hisobiga ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga, yangi turdagi energiya tejamkor materiallarini ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 1,7 barobarga oshirildi.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davom ettirilib, 850 dan ortiq yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etiladi. Buning uchun, 81 gektar yer maydonlari savdoga chiqariladi hamda bo'sh turgan 10 dan ziyod davlat aktivlari ommaviy savdolariga chiqariladi.

Aholi bandligini ta'minlash borasida ham ishlar davom ettirilib, tumanni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish va "Kambag'allikdan farovonlik sari" loyihasi doirasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tizimli ishlar tashkil etiladi. Buning uchun, yoshlar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitiladi. Mahallalarda 4 mingdan ziyod mikro va kichik loyihalar amalga oshirildi. Xorijda ishlash istagida bo'lgan fuqarolar kasb va xorijiy tillarga o'qitiladi hamda ularni Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarga yuqori daromad oladigan ishlarga yuboriladi.

2,9 MINGDAN ORTIQ YANGI ISH O'RINLARI TASHKIL ETILADI

Tumanda investitsion muhitni yanada yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilib, mavjud imkoniyat va zaxiralardan samarali foydalanib, yangi quvvatlarni ishga tushirish va eksport hajmini oshirishga e'tiborni kuchaytiramiz. Xususan, umumiy qiymati 1,1 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan 600 ga yaqin yangi investitsion loyihalarini ishga tushirish hisobiga 2,9 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etiladi. Tumanda kichik va yoshlar sanoat zonalarini faoliyatlari kengaytirilib, salohiyatli tadbirkorlar jalb qilinadi.

Tog'-kon sanoati va geologiya yo'nalishida 3 ta istiqbolli konlarni auktsion savdolariga chiqarish va realizatsiya qilishni tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalar hajmi 2,7 million AQSH dollariga yetkaziladi. Misol uchun, tumanning "Bag'rikeng" mahallasi hududida joylashgan "Selistin" koni, bundan tashqari, "Quduqsoy" mahallasi hududidagi "Keramzit" va "Gips" konlarini o'zlashtirish hisobiga ichki va tashqi bozorlarga qurilish materiallari yetkazib berish hamda tumanning sanoat salohiyatini oshirishiga erishiladi.

REJALAR ORTIG'I BILAN BAJARILADI

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Tumanimizning tuprog'i unumdor, suvi mo'ljil hosil garovidir. Shunday ekan, yerlarimizdan unumli foydalanib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni yangi bosqichga olib chiqqan holda hosildorlikni yanada oshirishni maqsad qilib olganmiz. Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan to'xtaladigan bo'lsak, joriy yilda 4 688 gektar maydonda g'alla yetish-tirilgan bo'lib, yalpi hosil 36,4 tonna (rejaga nisbatan 101,2 foizga bajarilgan), o'rtacha hosildorlik 38,8 sentnerni tashkil etdi. Kelgusi yillarda g'alla yetishtirishni 100 sentnerdan hamda paxta hosildorligini 75-80 sentnerga yetkazishni o'z oldimizga maqsad qilib olganmiz. Bundan tashqari, ertachi eksportbop mahsulotlarni yetishtirishni ko'paytirish orqali meva-sabzavot mahsulotlari eksportini 5 baravorga oshirishni reja qilib oldik. Chorvachilik sohasida 5 ta loyiha amalga oshirilib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2 barobarga oshirildi.

Suv resurslari borasida to'xtaladigan bo'lsak, suvning har tomchisini tejash, maqsadli foydalanish lozim. Kelgusida tumanimizda suvdan foydalanish samaradorligi 25 foizga oshiriladi. Buning uchun umumiy qiymati 9,5 milliard so'm, uzunligi 17 kilometr bo'lgan kanal tarmog'i betonlanadi, natijada "Bag'rikeng" va "Obod yurt" mahallalarida 1 484 ta xonadonning 730 gektar, "Mustaqillikning 10 yilligi" va "Do'stlik" hududidagi 32 ta fermer xo'jaliklarining 1 588 gektar yer maydonlari vegetatsiya davrida kafolati suv bilan ta'minlanadi. Tumandagi 2 ta nasos stansiyasi modernizatsiya qilinadi va 450 gektar maydonning suv ta'minoti yaxshilanadi. Kelgusi 5 yilda 1 867 gektar maydonda suv tejoyvchi texnologiyalar joriy qilinadi.

TA'LIM-U TIBBIYOTDA E'TIBOR KUCHAYTADI

Ta'lim-tarbiya va aholi salomatligi masalalariga alohida e'tibor qaratamiz. Eng katta va o'zini oqlaydigan investitsiya bu ta'limga, farzandlarimizni bilim olishiga kiritilgan investitsiya ekanligini barchamiz bilgan holda kelgusi 5 yilda tumanda ta'lim va zamonaviy kasblarni o'rganish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Aholi o'sishini inobatga olib, yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablar tashkil etilib, tumanda bog'cha qamrovini to'liq ta'minlashni maqsad qilib olganmiz. Qolaversa, pedagoglarning ilmiy mahorati va kasb malakasini yanada yaxshilashga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, tumandagi barcha maktablar zamonaviy kompyuter sinflari va interaktiv doskalar bilan jihozlanadi. Oliy ta'lim qamrovi 34,7 foizdan 40,1 foizga yetkaziladi.

Aholi salomatligini yaxshilash, kasalliklarning oldini olish va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish yo'nalishida ham qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, 5 ta tibbiyot muassasasi ta'mirlanib, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi. Tuman Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasini qayta qurish orqali tuman markazi va unga yaqin bo'lgan mahalladagi aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati oshirishga erishiladi.

"Ma'naviyat sektori" faoliyati haqiqiy sifat bosqichiga olib chiqiladi. Yoshlarning chet tillarini o'rganish va kasb egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, ularni ichki va tashqi mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash birlamchi vazifalardan biri sifatida alohida yondashuv va xorijiy tajribalar asosida ishlar tashkil etiladi.

"Ma'naviyat sektori" faoliyati haqiqiy sifat bosqichiga olib chiqiladi. Yoshlarning chet tillarini o'rganish va kasb egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, ularni ichki va tashqi mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash birlamchi vazifalardan biri sifatida alohida yondashuv va xorijiy tajribalar asosida ishlar tashkil etiladi.

SOHALARDA YANGI BOSQICHN BOSHLAB BERAMIZ

Kelgusi 5 yilda qurilish, infrazuzilmani yangilash va yaxshilash hamda yangi uy-joylar qurilishida ham yangi bosqichni boshlab beramiz. Bunda zamonaviy shaharsozlik va arxitektura yutuqlaridan foydalangan holda har bir massiv, shahar, mahalla va ko'chalarni obod va go'zal maskanlarga aylantirib boramiz. Xususan, tumanda kelgusida jami 60 tadan ortiq obyektlarda qurilish-ta'mirlash ishlari olib boriladi.

Tuman aholisini ichimlik suv bilan ta'minlash borasida olib borilgan loyiha ishlari natijasida aholining 45 foizi, ya'ni 39 600 nafarining toza ichimlik suvi ta'minoti tizimi tubdan yaxshilanadi hamda 46,7 foizi, ya'ni 41 000 nafar aholi ilk bor to'liq "To'palang-Termiz" magistrat suv tarmog'i orqali ichimlik suvi bilan ta'minlanadi va tuman aholisining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 45 foizdan 91,7 foizga yetkaziladi.

Elektr ta'minotidagi muammolr ham bosqichma-bosqich bartaraf etilib, 3 580 dan ziyod aholi xonadonlari hamda 150 dan ziyod ijtimoiy soha va tadbirkorlik obyektlarining elektr energiyasi ta'minoti yaxshilanadi. Davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarni, shuningdek, umumiy foydalanishdagi va ichki yo'llar hamda ko'priklarni ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Bunda, xalqaro moliya institutlari mablag' va grantlari hisobidan bir qator yirik loyihalar amalga oshiriladi. Xitoy Eksport-import banki krediti asosida "Sug'orish kanallarini rekonstruksiya qilish" loyihasi yuzasidan 17 kilometr kanal betonlanib, 2 dona inshoot rekonstruksiya qilinadi.

Jamiyatimizda ayollar rolini oshirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni har taraflama qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikka jalb etish va muhtoj ayollarga yordam ko'rsatish borasidagi ishlarimizni davom ettiramiz. Bundan tashqari, yoshlar bilan ishlab yangi bosqichga ko'tarilib, ularning bilim olishi, bandlik masalalari alohida nazoratga olinadi. Bunda yoshlarimizni IT texnologiyalari va sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha o'qitish va ularni zamonaviy raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirish oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu borada tumanda yoshlarni zamonaviy dasturchiilik kasbiga o'qitish bo'yicha ishlar tashkil qilingan. Keyingi besh yillikda IT park rezidentlari sonini 15 taga, xodimlari sonini esa 180 nafarga, sohdala ko'rsatilgan xizmatlar hajmini 14,6 milliard so'mga va IT sohasida ko'rsatilgan eksport xizmatlari hajmini 1,8 million AQSH dollariga yetkazishni rejalashtirganmiz.

Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bunda yo'l bo'ylari, sanoat va ishlab chiqarish korxonalarida 2 ta yashil belbog'lar tashkil etiladi. "Yashil makon" umumijamoiy loyihasi doirasida 4 million 635 mingdan ortiq ko'chatlar ekiladi va 3 ta yashil bog' tashkil etiladi.

Bugungi kunda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida juda ko'plab ishlar qilinmoqda. Ushbu ishlarni uzviy davom ettirib, sohada zamonaviy texnologiyalarni jalb qilgan holda raqamlashtirish, ish samaradorligini oshirish va mahallalarni jinoyatdan xoli hududga aylantirgan holda aholi farovonligini ta'minlash ustuvor vazifamiz hisoblanadi.

Jinoyatchilikning oldini olish va barvaqt aniqlash maqsadida "Xavfsiz shahar" konsepsiyasi to'liq amalga oshirildi. Umuman olganda, kelgusi 5 yilda marrani ikki karra yuqori olib, barcha sohalarda ko'rsatkichlarni yaxshilashga erishish orqali o'zgarishlar har bir mahalla, qishloq va xonadonlargaacha yetib borishini ta'minlashga bor bilim va kuchimizni sarflaymiz.

JARAYON

Denovliklarning so'zi bilan ishi doimo uyg'un. Har qadamda bunyodkorlik, yaratuvchanlik ishtiyoqi bilan yashayotgan tumandoshlarimiz yutuqlar bilan to'xtab qolishmaydi, balki zamon bilan hamnafas barcha jabhalarda faollikka intilishadi. Bu esa o'zining ijobiy samarasini ko'rsatib, so'nggi yillarda tumanda tadbirkorlar sonining 2,5 barobarga, sanoat mahsulotlari hajmi 2,1 barobarga, xizmat ko'rsatish 2,3 barobarga, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining esa 2,2 barobarga oshishiga xizmat qildi.



Ilhom ABROROV,
Denov tumani hokimi

“SEKTORBAY”, “MAHALLABAY” ISHLAB, XALQIMIZNI ROZI QILAMIZ”

ISHLAB CHIQRISH HAJMI 1,2 TRILLION SO'MDAN 2,3 TRILLION SO'MGA O'SADI

Avval iqtisod, keyin siyosat deganlaridek, kelgusi besh yilda ham tumanning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish masalasini birinchi o'ringa qo'yganmiz. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 107,5 foizga, yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 104,9 foizga, xizmatlar hajmi 114,5 foizga va qurilish-pudrat ishlari hajmini esa 107,6 foizga yetkazishni rejalashtirganmiz. Ayni sa'y-harakatlarimiz natijasi o'laroq sanoat ishlab chiqarish hajmi 1,2 trillion so'mdan 2,3 trillion so'mga o'sishi ta'minlanadi. Xususan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida mavjud korxonalarini modernizatsiya qilish va yangi korxonalarini ishga tushirish hisobiga ishlab chiqarish hajmini 1,7 barobarga, yangi turdagi energiya tejamkor materiallarini ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 2,5 barobarga, charm-poyabzal sanoatini yanada rivojlantirish va yangi loyihalarni amalga oshirish hisobidan 3,5 barobarga oshirildi.

Misol uchun, 2025-yil yakuniga qadar "Hisor teri" MCHJ tomonidan terini qayta ishlash loyihasining amalga oshirilishi natijasida 30 milliard so'mlik qo'shimcha sanoat mahsulotlari hajmi yaratiladi. Shuningdek, "Denov-Ravnaq Kamoli" xususiy korxonasi faoliyati kengaytiriladi va korxonada ishlab chiqarish hajmi oshiriladi. Qolaversa, elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish yo'nalishida qiymati 12,4 milliard so'mlik 4 ta loyiha amalga oshirildi, natijada ushbu turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 1,6 barobarga o'sishi ta'minlanadi.

KAMBAG'ALLIKKA BARHAM BERILADI

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davom ettirilib, 2,9 mingdan ortiq yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etiladi. Buning uchun, 8 ming gektar yer maydoni savdoga chiqariladi hamda bo'sh turgan 15 dan ziyod davlat aktivlari ommaviy savdolariga o'qitiladi. Aholi bandligini ta'minlash borasida ham ishlar tizimli davom ettirilib, tumanni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish va "Kambag'allikdan farovonlik sari" loyihasi doirasida kambag'allikka barham berish bo'yicha izchil ishlar tashkil etiladi. Buning uchun, yoshlar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitiladi, mahallalarda 5 yil davomida 9,6 mingdan ziyod mikro va kichik loyihalar amalga oshirildi. Tumandagi "Ishga marhamat" monomarkazi hamda nodavlat o'quv markazlarida xorijda ishlash istagida bo'lgan fuqarolar kasb va xorijiy tillarga o'qitiladi hamda ularni Germaniya va Yaponiya kabi davlatlarga yuqori daromad oladigan ishlarga yuboriladi.

Investitsiyalarni jalb etish bu yuqori daromad olish hamda kafolati ish o'rinlari tashkil etishda muhim sanaladi. Shu bois, tumanda umumiy qiymati 3,7 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan 669 ta yangi investitsion loyihalarni ishga tushirish hisobiga 9,4 mingdan ortiq doimiy yangi ish o'rinlari tashkil etiladi.

"Qo'zichoqli" mahallasida tashkil etilayotgan erkin iqtisodiy sanoat zonasi, "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi" hamda "Nuriston" kichik sanoat zonalarida qiymati 701,4 milliard so'mlik 91 ta loyihaning foydalanishga topshirilishi hisobidan 1,3 mingta doimiy ish o'zini yaratiladi. Bobur mahallasi "Qizilsuv" daryosi bo'yida qurilayotgan loyiha qiymati 76 milliard so'm bo'lgan "Yoshlar sayilgohi va maishiy xizmat ko'rsatish markazi" ning foydalanishga topshirilishi hisobidan ikkita restoran, 194 ta savdo shoxobchasi, avtoturargoh va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari tashkil etiladi.

Faol investitsiya siyosatini amalga oshirish, iqtisodiyotning barqaror o'sishiga erishish, xorijiy

investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hisobiga 320,8 million AQSH dollari miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtiriladi.

Afg'onistonlik investorlar tomonidan tumandagi sobiq dehqon bozori o'rnida yangi loyiha amalga oshirildi. Ushbu loyiha uchun investorlar tomonidan 250 million AQSH dollari miqdorida mablag' kiritiladi. Tovar va xizmatlar eksporti hajmi 164,1 million AQSH dollariga yetkaziladi. Bunda eksportchi korxonalar sonini 190 taga, eksport geografiasini 24 ta davlatga yetkaziladi.

Denovda ishbilarmon, tadbirkor, faol ayollarni juda ko'p. Ammo, hali hayotda o'z o'rniga ega bo'lmagan, ishsiz, yordamga muhtoj xotin-qizlar ham bor. Ularni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarimizni izchil davom ettiramiz. Xususan, tumandagi 910 nafar xotin-qiz kasb-hunarga o'qitiladi, 4 200 nafari tadbirkorlik ko'nikmalari va moliyaviy savdonlikka o'qitiladi va 1 790 nafar xotin-qizga o'zini o'zi band qilishni rag'batlantiruvchi subsidiyalarni ajratish hamda 17,8 ming nafar xotin-qizni ishga joylashtirishga ko'maklashiladi.

5 YILDA 10,9 MINGTA QO'SHIMCHA O'QUVCHI O'RNI YARATILADI

Ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash masalalari ham alohida e'tiborimizdagi masaladir. Shunday ekan, kelgusi 5 yilda tumanda ta'lim va zamonaviy kasblarni o'rganish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Aholi demografiyasi o'sishini hisobga olib, yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablar tashkil etib, hududlarda bog'cha qamrovini to'liq ta'minlashni maqsad qilib olganmiz. Shu maqsadda 6 ta — "Cho'ntosh", "Qorako'z", "Xo'jajalqi", "Olovuddin", "Sohibkor", "Chim" mahallalarida yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari qurish, 3 ta MTTni rekonstruksiya qilish hamda 9 ta MTTni mukammal ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, 9 ta yangi maktab qurish, 16 ta maktab binosini rekonstruksiya qilish va 21 ta maktabni mukammal ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Natijada, 5 yil davomida 10,9 mingta qo'shimcha o'quvchi o'rinlari yaratiladi. Shuningdek, pedagoglarning ilmiy mahorati va kasb malakasini yanada yaxshilashga alohida e'tibor beriladi. Tumandagi barcha maktablar zamonaviy kompyuter sinflari va interaktiv doskalar bilan jihozlanadi. Oliy ta'lim qamrovi 27,7 foizdan 39,9 foizga yetkaziladi.

Kutubxonaga yoshlar qatnovini oshirish, yoshlarning chet tillarini o'rganish va kasb egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, ularni ichki va tashqi mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash birlamchi vazifalardan biri sifatida alohida yondashuv va xorijiy tajribalar asosida ishlar tashkil etiladi. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, 1 500 nafar talabaga mo'ljallangan yangi o'quv binosi qurilib, foydalanishga topshiriladi.

Aholi salomatligini yaxshilash, kasalliklarning oldini olish va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish yo'nalishida ham qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, 14 ta tibbiyot muassasasi ta'mirlanib, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi. Tibbiyot muassasalaridagi tug'uruq o'rinlari soni 60 taga oshirildi. Tuman Sanitariya-epidemiologik osyoshtalik va jamoat salomatligi bo'limi laboratoriya majmuasi faoliyatini xalqaro akkreditatsiya talabalariga

muvofiqlashtirish, sinov laboratoriyalari majmuasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash ishlari amalga oshirildi.

DENOV YANGI QIYOFA KASB ETADI

Kelgusi 5 yilda qurilish, infrazuzilmani yangilash va yaxshilash hamda yangi uy-joylar qurilishi borasida ham zamonaviy shaharsozlik va arxitektura yutuqlaridan foydalangan holda har bir massiv, shahar, mahalla va ko'chalarni obod va go'zal maskanlarga aylantirib boramiz. Xususan, tumanda 200 dan ortiq obyektida qurilish-ta'mirlash ishlari olib boriladi.

Tumanda ichimlik suvi ta'minoti darajasi 63,8 foizdan 70,2 foiz, oqava suv bilan ta'minlanish darajasi esa 8 foizdan 18 foizga yetkaziladi. Xitoy Eksport-import banki krediti asosida "Sug'orish kanallarini rekonstruksiya qilish" loyihasi bo'yicha 2025-2027-yillarda tumandagi Bulung'ur kanalining 12,7 kilometr, Tojik kanalining 11,6 kilometr,

Xayrabad kanalining 23,5 kilometr va Denov arig'ining 15,7 kilometr qismida kanallarni betonlash va suv inshootlarini rekonstruksiya qilish ishlari olib boriladi. Natijada, aholi tomoqlariga hamda fermer xo'jaliklarining yer maydonlari va bog'uzumzorlarining oqava suv bilan ta'minlanishi yaxshilanadi.

Elektr ta'minotidagi muammolar ham bosqichma-bosqich bartaraf etilib, 325 mingdan ziyod aholi xonadonlari hamda 3 mingdan ziyod ijtimoiy soha va tadbirkorlik obyektlarining elektr energiyasi ta'minoti yaxshilanadi. Shuningdek, 212,6 kilometr uzunlikdagi elektr havo tarmoqlari SIP kabellarga, 3,6 ming dona yarqoqsimy o'chlar beton ustunlarga almashtiriladi va qo'shimcha 28 dona transformator o'rnatiladi. Xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarini, shuningdek, umumiy foydalanishdagi va ichki yo'llar hamda ko'priklarni ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Tumanda loyiha qiymati 84 milliard so'm bo'lgan 4R-108 "Denov aylanma yo'li" avtomobil yo'li va M-41 "Bishkek-Dushanbe-Termiz" avtomobil yo'lini bog'lovchi temir yo'li ustidan o'tuvchi yirik yo'l o'tkazgich qurilib foydalanishga topshiriladi.

Shuningdek, 46 kilometr uzunlikdagi xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish va 308 kilometr ichki yo'llarni ta'mirlash ishlari olib boriladi. Bunda, xalqaro moliya institutlarining mablag' va grantlari hisobidan bir qator yirik loyihalar amalga oshirilishi belgilangan.

TURIZM GEOGRAFIYASI KENGAYTIRILADI

Turizm bo'yicha imkoniyatlarimizdan samarali foydalanilgan holda kelgusida xorijiy turistlar sonini 385 ming nafarga va ichki turistlar sonini 1 million 270 ming nafarga yetkazamiz. Tumanda turizm geografiasini kengaytiriladi. Birgina Sina qishlog'iga "Turizm qishlog'i" maqomining berilgani so'zimiz ibotidir. Shuningdek, Xolchayontepa, Budrachtepa va Qorabog'tepa tarixiy yodgorliklari, buddizm diniga oid topilmalarning tuman hududida joylashganligi bugun Yaponiya va Xitoy davlatidan sayyohlarning jalb etishga keng imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, "Xo'ja Alovuddin Attor Vali" ziyoratgohi, Said otaliq madrasasi hamda Denov qo'rg'oni kabi tarixiy obidalar turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

So'zimiz boshida aytganimizdek, denovliklarning maqsadi aniq. Shu yurtini, shu vatanni obod qilish, farzandlarimiz iqtisodiy baquvvat, har taraflama rivojlangan Yangi O'zbekistonda kamol topishi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni ishga solamiz.

KONSTITUTSIYANING OLIY YURIDIK KUCHI VA TO'G'RIDAN-TO'G'RI AMAL QILISHI

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi" degan norma bor.



Xo'sh, Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega, degani nima?

Konstitutsiyaning eng asosiy yuridik xususiyatlaridan biri — uning oliy yuridik kuchga egaligidir. Bunda qonunchilik hujjatlarini tizimida (iyerarxiyasida) eng yuqori, eng birinchi o'rinda turishi, uning boshqa har qanday normativ-huquqiy hujjatdan ustun ekanini tushuniladi.

Mamlakatimizda qonunchilik hujjatlariga qonun (Konstitutsiya, qonunlar, Oliy Majlis palatalari qarorlari) va qonunosti hujjatlarini (Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, vazirlik va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari) kiradi.

Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega ekanligi uning siyosiy-huquqiy hujjat

ekanligi, parlamentda qabul qilishning alohida tartibiga egaligi yoki umumxalq ovozi (referendum) asosida qabul qilinishi, davlat ichki va tashqi siyosatining asosiy strategiy yo'nalishlarini, insonning asosiy huquq va erkinliklarini belgilashda ham namoyon bo'ladi.

Konstitutsiya oliy yuridik kuchga egaligini belgilovchi normalar Yaponiya, Singapur, Braziliya kabi davlatlar konstitutsiyalarida ham mavjud. Ushbu qoida barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, mansabdor shaxslarni Konstitutsiyaga muvofiq ish ko'rishga, qarorlar qabul qilishga majbur qiladi, Konstitutsiyada belgilangan inson huquq va erkinliklari boshqa qonun hujjatlarini bilan cheklanishi yoki chegaralanishini oldini oladi.

Huquqiy davlatda barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar konstitutsiyaviy prinsip va normalarga og'ishmay amal qilishi, Konstitutsiya to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan hujjat bo'lishi shartligi, davlat organlari, ayniqsa, sudlar o'z faoliyatida Konstitutsiyaga to'g'ridan-

to'g'ri murojaat qilishi, uning normalariga asosan ish ko'rishi zarur jihat.

15-moddaning uchinchi qismida "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir" deb mustahkamlab qo'yildi. Bu nima degani?!

Davlatimiz huquqiy tizimini konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik, oila, mehnat, jinoyat, ijtimoiy himoya kabi qator huquq sohalari tashkil etadi. Deyarli barcha qonunlarimizda agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalar qo'llanilishi nazarda tutilgan. Ammo mazkur qoida avvalgi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilanmagan edi.

"Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida"gi (23.05.1969-y.) Vena konvensiyasi va 2019-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi

qonunga ko'ra, xalqaro shartnoma — bu shartnoma, bitim, konvensiya, akt, pakt, bayonoma, xat yoki notalar almashuvi hamda xalqaro shartnomaning boshqacha nomlari va tuzilish usullaridan qat'i nazar, xorijiy davlat, xalqaro tashkilot bilan yozma shaklda tuzilgan, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro kelishuv hisoblanadi.

O'zbekiston xalqaro huquqning to'la huquqli subyekti sifatida bugungi kunda 140 dan ziyod davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan, 200 ortiq xalqaro shartnomaga a'zo va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini qamrab oluvchi xalqaro hujjatlarga qo'shilgan.

2023-yil 8-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-67-son Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so'zsiz va to'liq amalga oshirish,

unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O'zbekistonning ulug'vor g'oyasiga hamohang tarzda ro'yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'lga qo'yish, fuqarolar o'z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta'minlash maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyani so'zsiz va to'liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Farmonda qayd etilganidek, davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash uchun shaxsan javobgar hisoblanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri va so'zsiz qo'llaniladi.

Ravshan NAMAZOV,
Viloyat prokurorining birinchi o'rinbosari

"YASHIL MAKON" ORZUSI HAQIQATGA AYLANMOQDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.)

Respublikamizning janubdagi gavhari bo'lmish viloyatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi boshlanganidan to'g'ri kunga qadar 40 milliondan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekilganligi rostdan ham hayratlanarli.

Joriy yil kuz mavsumida jami 6 million 3 ming tup ko'chat ekish rejalashtirilgan bo'lib, hozirda viloyatda keng ko'lamda tasdiqlangan manzilli dastur asosida sug'orish tizimini inobatga olgan holda mahalla hududlari, ko'p kvartirali uy-joy massivlari, xiyobonlar, ziyoratgohlar, qabristonlar, avtomobil hamda temiryo'llarning atrofi, hokimlik zaxirasidagi bo'sh yerlar, dala chetlari, irrigatsiya va melioratsiya obyektlari muhofaza zonalarini va ijtimoiy soha muassasalarining bo'sh yerlarida ko'chat ekish uchun yer maydonlarini tayyorlash ishlari amalga oshirilmoqda, — deydi Surxondaryo viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi boshlig'i B. Urinov.

Joriy yilning o'tgan 9 oyi davomida Prezidentimizning sohaga oid qaror va farmonlari ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatimizda 83 gektar yerda 25 ta "Yashil jamoat parklari", 36,6 gektar

maydonda 15 ta "Hokimlik bog'larini" tashkil etilishiga erishilganligi quvonchli voqea, albatta. Ushbu bog'larga 42 mingdan ortiq mevali va manzarali ko'chatlar ekilgan. Shuningdek, viloyat hududida atrof-muhitga ta'sir xavfi bo'yicha 85 ta I va II toifadagi yirik sanoat korxonalarini va ularga tutash hududlarda "Yashil belbog'lar" tashkil etish uchun bahor va kuz mavsumlarida bugungi kunga qadar 358 ming 400 tup ko'chat ekilgan.

So'nggi yillarda viloyatimizda kuzatilayotgan qum bo'ronlari, mahalliy til bilan aytganda "Afg'on shamoli" keltiradigan zararning oldini olish, uning ta'sirini kamaytirish maqsadida viloyat hokimligi tashabbusi bilan Termiz, Angor va Jarqo'rg'on tumanlari tutashgan "Kattaqum" massivi hududiga 14,8 ming gektar maydonga 100 ming tup saksovul ko'chatlari va 80 tonna urug'lari ekilib, yashil qalqon barpo etildi. Albatta, bu tadbirlar uchun ko'plab ishchi kuchi jalb qilinib, ulkan mablag' sarflaganligi barchaga kundek ravshan. Bundan tashqari, qo'shni Afg'oniston mamlakati bilan chegaradosh bo'lgan Termiz shahar hamda Termiz tumani mahallalari hududiga qum bo'ronlari yopirilishining

oldini olish bo'yicha 12 gektar yer maydoniga Eldor qarag'ayi ko'chatlarini ekish orqali yana bir "Yashil belbog'" yaratilganligi amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligidan dalolat.

— Yana bir masalani alohida e'tirof etishimiz lozim, — deydi Surxondaryo viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi boshlig'i B. Urinov, — "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari xalqaro avtomagistral yo'lining har ikki yonini daraxtzorga aylantirish, yashil qoplamalar tashkil etish kerakligini ta'kidlagan edi. Joriy kuz mavsumida "Almata-Bishkek-Toshkent-Termiz" yo'nalishidagi M-39 xalqaro avtomobil yo'lining Termiz, Angor, Muzrabot hamda Sherobod tumanlari hududidan o'tuvchi 61 kilometr qismiga manzarali daraxt ekish bo'yicha reja ishlab chiqdik.

Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasidan olingan ma'lumotga ko'ra, ayni paytda adir va toshloq yerlar tekislanib, unumdor tuproqqa almashtirish tadbirlari amalga oshirilib, ko'chat ekish uchun tayyorlanish ishlari olib borilmoqda. Mazkur yer maydonlariga 290 mingdan ortiq ko'chatlar ekiladi. Shu hududda suv tizimini yaxshilash

uchun 12 kilometr qismida yo'lining ikki tarafida jami 29 gektar yerda tomchilatib sug'orish tizimi hamda beshta suv havzasi barpo qilindi. Bundan tashqari, M-39 xalqaro avtomobil yo'li atrofidagi 122 kilometr maydonda sug'orish tizimi joriy etiladi; bunda 32 ta sug'orish hovuzlari barpo etilib, tomchilatib sug'orish tizimi yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda ushbu tadbirga 100 nafardan ortiq ishchi, 150 dan ortiq maxsus va og'ir texnika jalb etilmoqda.

Bugun komil ishonch bilan aytilish mumkin, viloyatimizda bu borada keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, o'zini shu yurt farzandi, uning baxt-u kamoliga burchliman deb hisoblaydigan har bir yurtdoshimiz g'ayrat ko'rsatib, mamlakatimiz taraqqiyotiga imkon qadar hissa qo'shmog'i zarur. O'lkamiz yashillikka burkanib, atrof-muhit toza, havu msaaffo bo'lsa, nafaqat go'zallik kasb etadi, balki insonlar salomatligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, ushbu tadbirda har birimiz faol ishtirok etib, hovlimizni, yon-atrofimizni, mahallamizni gulzorlarga aylantiraylik! Bugungi kunga kelib, xalqimizning "Yashil makon" orzusi ushlab, tobora haqiqatga aylanmoqda. Bu xayrli ishga siz ham o'z hissangizni qo'shing!

Xolmuhammad TOG'AYMURODOV

IMTIYOZ

QQSNING BIR QISMI QAYTARIB BERILADI

Soliqlarni o'z vaqtida to'lash ish haqi, pensiya, nafaqalariningda kechikmasligiga xizmat qiladi. Yurtimizda tizimda samaradorlikka erishish maqsadida qator imtiyoz va qulayliklar yaratilayotir.

Vazirlar Mahkamasining "Umumiy ovqatlanish, mehmonxona va turoperatorlik xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish va ularning qonuniy ishlashi uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2024-yil 1-oktyabrdan turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga — byudjetga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) ning 20 foizi qaytariladi. Bunda turoperatorlik xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar uchun chet el valyutasidagi tushumlar barcha tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumning kamida 80 foizini tashkil etishi kerak. 2025-yil 1-yanvardan umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga ularning oylik tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanmasining naqd pul-siz qismi 60 foiz va undan yuqori

bo'lganda — byudjetga to'langan QQSning 40 foizi, 60 foizdan kam bo'lganda esa 20 foizi qaytariladi. Tadbirkorlik subyekti soliq hisobotini taqdim etgandan so'ng, lekin 3 oydan kechiktirmasdan soliqning bir qismini qaytarish uchun murojaat qilishga haqli. Hisobot davrida soliq bo'yicha taqdim etilgan soliq hisobotiga muvofiq hisoblangan soliq byudjetga to'liq to'langanda, umumiy tovar aylanmasi jami tovar aylanmasining 90 foizdan kam bo'lganda hamda hisobvraq-fakturalarda yoki nazorat-kassa texnikasi cheklarida realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasi hamda faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga yoki amalga oshiriladigan turlariga muvofiq bo'lgan identifikatsiya kodlari aks ettirilgan qismiga nisbatan soliqning bir qismi avtomatik ravishda qaytariladi. **Dilnoza ALLAYAROVA,** Viloyat soliq boshqarmasi jamoatchilik bilan aloqalar sho'basini boshlig'i

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan "SURXANCENTINVEST" MCHJ shaklidagi chet el korxonasi 2019-yil 30-oktyabrda berilgan PR 008496 raqamli litsenziya yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

Viloyat IIB tomonidan 2005-yil 1-avgustda Ro'ziyev Geldimurod Qurbonovichga berilgan 1769-sonli nafaqa guvohnomasi yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

EHTIYOT BO'LING

YOMONLIKNI EMAS, OGOHLIKNI O'YLA...

Xalqimiz orasida yomonlikni o'ylama, kasbim taqozosi tufayli yozishga jazm qildim.

Achchiq bo'lsa-da, haqiqat! Ahyon-ahyonda "oilaviy is gazidan zaharlanibdi-ya", degan yomon gaplar qulog'imizga chalinib qoladi. Bu holatlar sovuq kunlarda ko'plab uchraydi. Kundalik turmushimizda foydalaniladigan yoqilg'i mahsulotlarining ichida tabiiy gazdan zaharlanish ko'proq uchraydi.

Zaharlanish boshlanishida hech narsa sezilmasligi xavf yuqoriligining alomatidir. Nafas oladigan havoda is gazni miqdori oshishi bosh og'rig'i va bo'g'itilish bilan kuzatilib, hushdan ketish holatiga olib keladi. Bunday holat nazoratsiz qoldirilsa, o'lim bilan yakun topishi mumkin.

Uyni isitish uchun qo'lbola elektr isitgich, gaz ballonlaridan, nstandart asboblardan o'z boshimchalik bilan foydalanish ayanchli oqibatlariga olib kelishini unutmaylik. Gaz hidini sezsangiz, darhol eshik-derazalarini oching, zinhor gugurt chaqa ko'rsang. Xonaning elektr yoritgichini yoqmaslik ham yong'inni oldini olishning omillaridan biridir. Ko'chaga chiqish va uyquga ketish oldidan gaz pechini o'chiring.

Ehtiyot choralariga amal qilsak, yong'in va zaharlanish bilan bog'liq bo'lgan favqulodda ko'ngilsiz voqealarning oldini olgan bo'lamiz.

Jumanazar MADIYEV, Sog'liqni saqlash a'lochisi, "Do'stlik" ordeni sohibi, oilaviy shifokor

Viloyat YHXB Termiz TRIB tomonidan Tursunov Farruh Qahhorovichga berilgan AS 353322 raqamli haydovchilik guvohnomasi yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

QONUNLAR NOMIGAGINA QONUN BO'LMASLIGI KERAK

Konstitutsiya asrlar davomida shakllangan milliy g'oya va sharqona qadriyatlar aks etgan, oliy yuridik kuchga ega bo'lgan, huquqning hamma tarmoqlari uchun qonunchilik bazasi hisoblangan, bir so'z bilan aytganda, davlatning o'ziga xos tanishtiruv hujjatidir.

Konstitutsiya huquqiy davlatning asosiy belgisi hisoblanib, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga to'la mos holda mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy salohiyatini yuksaltirishga hamda hayotimizning barcha jabhalarida amalga oshirilgan samarali islohotlarga asos bo'lib, inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlab beradi. Bu esa jamiyat a'zolarini o'zaro kelishib, tinch-totuv, bahamjihat yashashlarini ta'minlash uchun alohida ahmiyat kasb etadi. Zero, har qanday davlatning dunyo mamlakatlari orasidagi nufuzi, mavqeyi, obro'-e'tibori va salohiyati iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti bilan bir qatorda, qonunchilik va ularni amalga tatbiq etish jarayoni to'g'ri yo'lga qo'yilganligi hamda fuqarolarni mavjud qonunchilikka munosabati bilan ham belgilanadi.

Jamiyatni qonun boshqarmas ekan, boshboshdollik, firibgarlik, aldov, poraxo'rlik, tanish-bilishchilik, qarindoshlarga qo'ndoshlik, mahalliychilik, tamagirlilik va boshqa ko'plab illatlar tomir otadi. Bunday jamiyatda adolat o'rnatish qiyin masala bo'lib qolaveradi. G'arb jamiyati buni asrlar davomida boshidan kechirdi. Yakunda, qonun, qonun va yana qonun deb xulosaga kelgan.

Tabiat qonun bilan yashar va yashnar ekan, inson ham qonun asosida kun kechirishga majbur. Chunki, inson ehtiyojlari cheksiz va behududki, agar yashashning maqbul qonun-qoidalarini ishlab chiqilmasa va unga amal qilinmasa, dunyoni jaholat egalaydi, odamlarning o'rtasida vahshiylik kuchaygandan kuchayadi. Shunday ekan, qonun insonning istagidan qat'i nazar, uni tan olishga majbur qiladigan oliy kuch ekanligini unutmazlik kerak.

Sir emas, o'tgan davr ichida konstitutsiyamiz jiddiy hayot sinovlaridan o'tdi, xalqimiz hayotida muhim bo'lgan bu hujjatga kiritilgan 15 ta o'zgartirish va qo'shimchalar asosida asrlar davomida yuz berishi mumkin bo'lgan tengsiz o'zgarishlar amalga oshirildi.

Yangi Konstitutsiyamizda fuqarolarning huquq va erkinliklari yo'nalishida, tadbirkorlik va yerga oid masalalar, sud-huquq sohasida, davlat boshqaruvi, tashqi siyosat, oila instituti, ta'lim, tibbiyot, ekologiya, nogironliligi bo'lgan shaxslarning huquqlariga oid normalar hisobga olinib, Prezidentimiz tomonidan quyidagi to'rtta ustuvor yo'nalishga alohida e'tibor qaratildi: — inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmatini, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini masalasi;

— "O'zbekiston — ijtimoiy davlat" g'oyasi; — Konstitutsiyada mahallaning maqomini hamda davlat organlarining bu boradagi vazifalarini aniq belgilash; — mamlakatimizda davlat boshqaruvi takomillashtirish, xalq hokimiyatchiligini kuchaytirish.

Shuningdek, Prezident Konstitutsiyaga kambag'allikni qisqartirishni va ijtimoiy himoya bo'yicha qator normalar kiritishni ham ilgar surdi. Barcha takliflar hamda keng ko'lamli islohotlar inobatga olingan holda yangi tahrirdagi Konstitutsiya 65 foizga yangilandi.

Albatta, konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida qadrlaydigan Bosh qomus, davlatning asosiy hujjatidir. Unda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida kafolatlanadi. Davlat boshqaruvi, hukumat organlari faoliyatining tartib-tamoyillari inson — jamiyat — davlat farovonligiga asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda, asosiy qonunimiz o'zida nafaqat xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettirgan, balki unda yangilikning eskilik ustidan, erkinlikni zo'ronlik ustidan, adolatning haqsizlik ustidan, taraqqiyotni tanazzul ustidan g'alabasi muhrilangan. U tom ma'nodan xalqimiz tafakkuri va ijodi mahsulidir. Muxtasar aytganda, inson huquqlariga oid xalqaro prinsip va standartlarni o'zida mujassam etgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyamiz normalari va prinsiplari milliy qonunchilik negizini tashkil etdi hamda yurtimizda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning barqaror huquqiy asoslarini yaratishda mustahkam poydevor bo'layotir.

Asqar MAMARAIMOV, Surxondaryo viloyati sudi sudyasi

MAHALLIY KENGASHLARNING HUDUDIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Bugun xalq manfaati, uning orzuistaklari, maqsad va mud-daosi ham, qolaversa, fikrlash tarzi ham o'zgardi. Xalqchil islohotlarning tashabbuskori, hududlarning rivojlanishi, davlat dasturlarining ijro etilishida jamoatchilik nazorati tobora kuchayib, joylarda faoliyat yuritayotgan deputatlarning, ayniqsa, mahalliy kengashlarning hamjihatlik va tashabbuskorlikda faoliyat yuritishini davrning o'zi dolzarb qilib qo'ydi. Shu nuqtai nazaridan olib qaraganda bugungi kunda mahalliy kengashlarning hudud rivojida, aholi manfaatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdagi roli ortib, funksional vazifasi ham tubdan takomillashdi.

Bu borada so'nggi yillarda xalq deputatlar mahalliy Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal qilish bo'yicha va-kolatlarini kengaytirilib, xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi.

Mahalliy Kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini ustidan xalq deputatlar mahalliy Kengashlarining nazorat funksiyalarini kengaytirish maqsadida ularga o'ndan ortiq qo'shimcha vakolatlar berildi. Xususan, prokuratura, adliya, ichki ishlar, molliya, soliq, ekologiya va sog'liqni saqlash organlari rahbarlarining hisobdorligi belgilab qo'yildi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlarini, mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilganligi hokimiyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy darajada ijrosini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi.

Shu bilan birga, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlar mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning haqiqiy "ovoziga" aylantirish, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvi "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida yo'lga qo'yishni talab etmoqda.

Dilmurod FAYZULLAYEV, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi viloyat hududiy bo'linmasi bosh mutaxassisi

“YAXSHI FAZILATLARNI O‘QIGAN KITOBLARIMNING QAHRAMONLARIDAN OLGANMAN”

BIZNING MEHMON



O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, “Do‘stlik” ordeni va “Shuhrat” medali sohibi ABDUKARIM AHMEDOV bilan suhbat.

Men bu insonni hamisha ko‘tarinki kayfiyatda, bardam va ishchan holatda uchrataman. Umrining ellik yildan ko‘prog‘ini rahbarlik vazifalarida o‘tkazib kelayotgan Abdurrahmon Ahmedov mehnat faoliyatining keyingi chorak asrdan ko‘prog‘ini Surxondaryo viloyati kasaba uyushmalari tizimi faoliyatini to‘g‘ri shakllantirish bilan bog‘liq ishlarga baxshida etib kelmoqda. Bu serg‘ayrat, tashabbuskor, fidoyi inson bilan samimiy ruhda kechgan suhbatimiz, asosan, odam bolasining shaxs sifatida shakllanishida turtki vazifasini o‘tovchi omillar, oila hamda jamiyatdagi muhitning tarbiyaga ta‘siri, ijtimoiy himoyaning inson taqdiridagi o‘rni va roli haqida bo‘ladi.

foydasi tegsa, mayli, bu borada istagan savolingizni bemaol beraverim.

— **Rahmat. Sizni yaqindan bilganlar yoshligingizdan boshlaboq ilmga, yangilikka intiluvchi edi, deya ta‘riflashadi. Bu e‘tiroflarda qanchalik haqiqat bor?**

— Sha‘nimga iliq fikr bildirganlarning barchasiga samimiy rahmatlarimni yo‘llayman. Sizga esa yoshlik yillarim va keyingi mehnat faoliyatim haqida qisqacha bo‘lsa-da, so‘zlab beraman. Boshqalardan va mening o‘zimdanda eshitganlarimgizni muqoyasa qilib, xulosani o‘zingiz chiqarib olaveringiz, kelishdikmi?

— **Kelishdik. Agar shunday qilsangiz, ayni muddabo‘ladi!**

— Yaxshi. Bolalik va o‘smir yoshimdan, kitob mutolaasiga o‘ch edim. Agar bu paytgacha o‘qigan kitoblarni sanaydigan bo‘lsam, ro‘yxat cho‘zilish ketishi mumkin. Shuning uchun o‘zimdagi bor yaxshi fazilatlarini o‘qigan kitoblarning qahramonlaridan olganman, degan fikr bilan cheklanib qo‘yaqolay. Lekin, bitta misol keltirib o‘tsam, o‘rinli bo‘ladi. Atoqli akademik shoir va yozuvchi G‘afur G‘ulomning “Yodgor” qissasini berilib o‘qib yurgan kezlirimda ko‘nglimda Rossiyaning Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shahrida o‘qish ishtiyoqi tug‘ilgandi. 1985-yillarga kelib, Moskva yoki Leningrad shahrida o‘qish uchun imkoniyat tug‘ilib qoldi. Tabiiyki, men hech ikkilanmay, xayolimni band etgan afsonaviy shahar — Leningradni tanladim. Eng e‘tiborlisi, Yevropa sivilizatsiyasi va madaniyatini chuqurroq o‘rganishimda bu shahar muhim rol o‘ynadi. Ilm sari intilishim esa, Toshkent Xalq xo‘jaligi institutida o‘qib yurgan kezlirimda yanada qat‘iylashdi. Ustozim Abdulatif Abdug‘aniyev rahbarligida yozilgan “Anorchilikning iqtisodiy samaradorligi va uning rivojlanish istiqbollari” mavzusida yozgan diplom ishim ilmiy izlanishlar borasidagi birinchi dadil qadamim bo‘ladi. Nokamtarlikka yo‘ymasangiz, aytay, hozirgi kunda ham bu ishim institut kutubxonasida saqlanib turibdi, o‘rni kelganda talabalar undan hamon foydalanishmoqda.

— **Suhbatlaringizning birida otangiz haqida so‘zlay turib, u kishi jamoa xo‘jaligi raisi bo‘lganligini aytgandigiz. Rahbar qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi ilk saboqlarni otangizdan olgansiz deb tushunsak, o‘rinli bo‘ladimi?**

— Otam Abdurrahmon Ahmedov ikkinchi jahon urushi qatnashchisi edilar. Shu ma‘noda aytadigan bo‘lsam, u kishi nafaqat turmush, mehnat jarayonlarida, balki ayovsiz tarzda kechgan jangohlarda ko‘z o‘ngida, tag‘in navqiron yoshda daydi o‘qdan halok bo‘lganlarni ko‘raverib, odam bolasining hayoti nechog‘lik omonat ekanligini, umr odam bolasiga bir marta berilishining asl mohiyatini juda erta

anlab yetganlar, deb o‘ylayman. Shuning uchun ham insonni e‘zozlash, har bir odamning qadriga yetish, atrofida yashayotgan insonlarning turmush sharoitlarini yaxshilashga intilish — otamning umr mazmuniga aylangan edi desam, mubolag‘a bo‘lmas. Otamiz odamlar taqdiriga aloqadorlikdek yuksak mas‘uliyatni naqadar chuqur anglaganligini, muhtojlarga birinchi bo‘lib madad qo‘lini uzatish chin insoniy burch ekanligini, ayniqsa, qo‘li ochliklarni o‘zlariga hayotiy tamoyil qilib olganliklarini hali bolalik kezlirimdayoq tushunib yetganman. Chunki uyimizga yuqori martabali insonlar, yozuvchi va shoirlar, taniqli muxbirlar, xullas, o‘z davrining mashhurlari kabi, oddiygina dala mehnatchilari ham ko‘p bora mehmon bo‘lib kelishardi. Otamiz odamlarni toifa yo‘ki tabaqaga ajratib o‘tirmasdilar, barchani birdek izzat-u hurmat bilan qarshilab, samimiy ruhda e‘zozlardilar. Tabiiyki, bunday davralarda diltortar gurunglar mo‘l bo‘ladi. Otam hamisha el dardi, odamlarni tashvishlantirayotgan muammolar haqida, nima qilinsa, bu kabi muammolarni bartaraf etish imkonligi to‘g‘risida hayotiy misollar keltirgan holda so‘zlardilar. Men bu gurunglarni mehmonlarga choy tashib yurib ixlos bilan tinglar, donishmandona ohangda gapirayotgan otamga havas bilan qarab, har bir so‘zini qalbm to‘riga muhrlashga intilar edim.

— **Siz haqingizda gap ketganda, “Abdurrahmon aka yaxshi odam, inson mehnatini qadrlovchi rahbar”, deyishganini ko‘p bora eshitganman. Hikoyangizni tinglagach, Sizni bu darajada hurmatlashlariga sabab, hozirgina aytganingizdek, oilaviy muhit va ota-ona tarbiyasi ekanligiga amin bo‘ldim. Lekin har qanday insonni ijodiy, talabchan, mas‘uliyatli shaxsga aylantirish uchun, nazarimda, birgina oila muhitidagi tarbiya va olingan ibratlarning o‘zi yetarli emas. Chunki har bir inson o‘zi yashayotgan jamiyat qonun-qoidalari, muhim tamoyillari asosida shaxs sifatida shakllana boradi. Shu ma‘noda aytganda, shaxs kamolotida atrofidagi muhit, odamlararo muomala va munosabatlar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Siz bu borada qanday fikrdasiz?**

— Jamiyatdagi umumiy muhitning inson fe‘l-atvoriga, kayfiyat hamda o‘zligiga ta‘sir etishi borasidagi fikrlaringizga qo‘shilaman. Demochimanki, o‘z maslagida barqarorligina hayotda duch kelinadigan evrilishlarni sabot dush yenga oladilar. Bu gaplarni shuning uchun aytayapmanki, mehnat kishisiga munosabat qanday bo‘lishi kerakligi saboqlarini oilada olgan bo‘lsam-da, umrim davomida turfa fe‘lli, o‘zgaruvchan xulqli odamlarga ko‘p duch keldim. Demak, ulardan ham ma‘lum ma‘noda nimalarnidir o‘rgandim, foydali xulosalar yasadim. Shukrki, bu paytga qadar bir necha bor past-baland deganlariday, turli lavozimlarda ishladim. Olam hamda odamni tanishimda esa jamiyatdoshlarimdan olingan

ibratlar misoli bir yo‘lchi yulduz bo‘ladi. Keling, shu fikringa monand bir kichkina misol keltirib o‘tay. Viloyat hokimining iqtisodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari lavozimidan 1997-yilda o‘z xohishim bilan kasaba uyushmalariga ishga o‘tganimdan keyin, oradan biror oy o‘tgach, o‘sha paytlardagi viloyat hokimi, rahmatli Jo‘ra Noraliyev: “Abdurrahmon, aytganchi, — deya so‘rab qoldirdi, — sizga nisbatan odamlarning munosabati endi qanday bo‘lyapti, o‘zgardimi”. Hokimning bu savoliga javoban to‘g‘risini aytib qo‘yaqoldim: “Ha, o‘zgardi. Mansab tufayli orttirgan “do‘stlarim”ning ko‘pchiligi endilikda o‘zini mendan olib qochadigan bo‘lib qoldi”. Qarang, tilim orqali savolingizga javob berayapman-u, lekin dilimdan boshqa fikr o‘tib turibdi: pokiza suvning yuziga chiziq tortib bo‘lmaganidek, qalbi muasafu odamning nomini ham bios bulg‘ayolmaydi. Ya‘ni, ayrim noma‘qul va nomatlub munosabatlar tufayli insonning boshiga turli savdolar tushishi mumkin. Agar kishining qalbida Vatanga, odamlarga mehr, mehnat faoliyatida esa sabot tuyg‘ulari ustun bo‘lsa, qiyinchiliklarni yengib o‘tish mumkin.

— **Mehr haqidagi so‘zlaringizni tinglay turib, ko‘nglimda bir savol tug‘ildi...**

— Aytganchi, o‘sha savolingizni? — **Xorijiy davlatlarga safar paytida Vatan sog‘inchi, o‘z millatingizdan g‘ururlanish holati bo‘lganmi yoki o‘zga yurtlarni miriqib tomosha qilib, tabiatidan huzurlanib qaytish bilan cheklangansiz?**

— Uzoq xorijiy mamlakatlardan Hindiston, Eron, Turkiyada, yurtimizga nisbatan yaqin bo‘lgan Rossiya, Ukraina, Estoniya, Ozarbayjon, Tojikiston hamda Afg‘onistonda bo‘lganman. Anglaganim shu bo‘ldiki, o‘z vatani va millatini sevgan kishi uchun Vatan sog‘inichidan ortiqroq tuyg‘u yo‘q ekan. Chunki vatanimizda insonga e‘tibor kuchli. Millati va irqidan qat‘i nazar, nafaqat davlat, balki oddiy insonlar ham yordamga muhtoj kishiga madad qo‘lini, albatta, uzatadi, yolg‘izlatib qo‘ymaydi. Ayniqsa, mehnat kishisiga bizning yurtdagidek g‘amxo‘rlilik va e‘tibor dunyoning hech bir burchida yo‘q. Xorijiy mamlakatlarga safarim taassurotlari ta‘sirida men anglagan hayotiy haqiqatlarning eng zo‘ri ham, kuchlisi ham shu bo‘ladi.

— **Inson, ayniqsa, mehnatkash odam qadri haqida yaxshi gap aytgandigiz. Siz ko‘p yillardan buyon viloyat kasaba uyushmalari Kengashini boshqarib kelyapsiz. Oradan o‘tgan yillar davomida mehnatkashlarning chinakam g‘amxo‘rligi va himoyachisi bo‘lgan kasaba uyushmalari hayotida sezilarli yangiliklar ro‘y berdi. Sizningcha, eng muhim va ijodiy o‘zgarishlar nimalardan iborat bo‘ldi?**

— Boshqa sohalar kabi O‘zbekiston kasaba uyushmalari uchun ham keyingi yillar haqiqatan ham unutilmas tarixiy voqealarga boy bo‘ladi. Ayniqsa, mehnat ahlining qonuniy haq-huquqlarini himoya qilish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilgan ishlar ko‘lami kengaydi. Kasaba uyushmalari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Eng muhimi, “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi, Prezidentimiz qarori bilan 11-noyabr — Kasaba uyushmalari xodimlari kuni deb e‘lon qilinib bayram sifatida nishonlanishi, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi, shuningdek, boshqa xalqaro tuzilmalar bilan yaqin hamda ishonchli aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi har jihatdan e‘tirof loyiq ish bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston kasaba uyushmalari mehnat ahlining huquqlari va ijtimoiy himoyasini har jihatdan to‘kis ta‘minlashda eng ishonchli hamkoriga aylandi. Bir so‘z bilan aytganda, Federatsiyamiz olib borayotgan faoliyat xalqaro miqyosda e‘tirof etilishiga muvaffaq bo‘lindi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) bilan o‘rnatilgan hamkorlik yaxshi ijodiy samaralar berishiga erishildi. Bunga XMT tomonidan O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi ijtimoiy muhoqot borasida olib borayotgan ishlar namuna sifatida Markaziy Osiyo davlatlaridagi kasaba uyushmalari markazlari faoliyatiga tadbiiq etish uchun tavsiya qilinganligi yorqin misol bo‘la oladi. Chunki O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Xalqaro kasaba uyushmalari Konfederatsiyasining kuzatuvchi maqomidagi a‘zosi sifatida amalga oshirayotgan ishlar har jihatdan ibratli bo‘layotganini ta‘kidlab o‘tsam o‘rinli bo‘ladi. Shuni ham eslatib o‘tayki, mamlakatimiz kasaba uyushmalari tashkiloti Umumkonfederatsiyasidagi a‘zoliqini tikladi hamda ushbu konfederatsiyaning kollegial organlariga O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi vakillarining kiritilishiga erishdi. Natijada dunyodagi ko‘plab davlatlarning milliy kasaba uyushma markazlari bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatilib, ikki tomonlama manfaatli Kelishuvlar qabul qilindi.

— **Vaholanki, tizimda ro‘y bergan o‘zgarish va yangiliklar haqida suhbatlashayotgan ekanmiz, aytganchi, bugungi kun kasaba uyushmalari faoliyati qanday yangi asoslarga tayangan holda ish olib boryapti?**

— Hozirgi kunda kasabachilar amalga oshirayotgan barcha ishlar O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan

strategiy o‘nalishlari, Federatsiyaning yangi tahrirdagi Ustavi, Nazorat-taftish komissiyasining yangi tahrirdagi Nizomi asosida amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiy o‘nalishlarida Yangi O‘zbekiston kasaba uyushmalari faoliyatining ustuvor vazifalari belgilab berilgan. Bu vazifalar asosini mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga ko‘maklashish, ijtimoiy muloqot va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, mehnatga haq to‘lash bilan bog‘liq vazifalar, kasaba uyushmalari va mehnat bozori, mehnat xavfsizligi hamda gigiyenasi ishlarini tashkil etish va normativ negizini mustahkamlash, kasaba uyushmalari inspeksiyalarining jamoatchilik nazorati bo‘yicha asosiy vazifalar, kambag‘allikni qisqartirish, aholi, ayniqsa, ayollar va yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning maxsus choralari ko‘rish nazarda tutilgan. Boshqacha aytganda, bugungi kunda olib borayotgan barcha yo‘nalishdagi ishlarimiz ijtimoiy hayotning ana shu jihatlarini qamrab olishga qaratilgan.

— **Yangi huquqiy va tashkiliy asoslarda faoliyat yuritish qanday ijodiy samaralar beryapti?**

— Bu savolingizga javob tariqasida, yaxshisi, vohamizda mehnat ahli salomatligini tiklashga qaratilgan ishlarimiz to‘g‘risida bir-ikkita misol keltirib o‘tay. O‘ylaymanki, siz kutayotgan javoblar ana shu misollarda mujassam bo‘lib turibdi. O‘zingiz ham yaxshi bilasiz, har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va ishlab chiqarishning rivojlanishi — kishilarning botinida bo‘lgan tabiiy qobiliyatni yuzaga chiqarish orqali kashfiyotchilik hamda ijodkorlikni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Zero, inson ishlab chiqarishda unumdorlikka erishmog‘i, o‘zidagi ijodiy tashabbuskorlikni yanada kuchaytirib yangilik yaratmog‘i, demak, samaradorlikka erishmog‘i uchun, u albatta, sog‘lom bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham viloyat kasaba uyushmalari Kengashi aholi salomatligini ta‘minlash ishlariga alohida e‘tibor qaratmoqda. Shu maqsadda Termiz tumanining Uchqizil qo‘rg‘onidagi moviy ko‘l bo‘yida joylashgan “Termiz marvaridi”, Oltinsoy tumanida esa “Xo‘jaipok” sanatoriyasi qurilib, foydalanishga topshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan Boysun tumanidagi “Omonxonona” sanatoriyasi kasaba uyushmalari tasarrufiga o‘tkazildi. Yodingizda bo‘lsa, bundan uch yil avval, ya‘ni 2021-yilning 30-may kuni “Sangardak” sanatoriyasining 7 qavatli binosi va 50 o‘ringa mo‘ljallangan mehmonxonona qurilishi boshlab yuborilgan edi. Bu sanatoriyni qurish uchun O‘zbekiston kasaba uyushmalari

Federatsiyasi tomonidan qariyb 110 milliard so‘m mablag‘ sarflandi. Mo‘jizaviy Sangardak qishlog‘i va uning maftunkor qiyofasiga uzukka ko‘z qo‘ygandek yarashib tushgan, tog‘ning baland nuqtasida qad rostlagan ushbu zamonaviy sihatgoh 200 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, yil davomida bu yerda 30 ming nafar ishchi-xodim, mehnat faxriylari o‘z sog‘ligini tiklashi uchun sharoit yaratildi. Bu misollarni shuning uchun keltiryapmanki, bundan atiga yetti yil avval tasarrufiga bironta ham sanatoriysi bo‘lmagan Surxondaryo viloyat kasaba uyushmalari Kengashi hazurida endilikda 4 ta sihatgoh ishlab turibdi.

— **Mehnat faoliyatigizning deyarli o‘ttiz yilini viloyatda shu sohani boshqarish va rivojlantirish hamda takomillashtirishga bag‘ishlab kelyapsiz. Kasaba uyushmalari esa barkamol avlodni tarbiyalashga ulkan hissa qo‘shuvchi mustaqil ommaviy tashkilot hisoblanadi. Aytganchi, Sizningcha, komil inson kim?**

— Donolarning fikricha komil, har jihatdan to‘kis va barkamol inson tayyor holda tug‘ilmaydi. U davr va zamon dolg‘alarida toblanish, mehnat jabhalarida chiniqish jarayonlarida shakllanadi. Demochimanki, yuqori mansab ham, shon-u shuhrat ham, olg‘a intilish ham komil inson maqomini belgilamaydi. Bu hayotda borligingni, ne bir ezgu va xayrli amallarini avvalo xalq, so‘ngra atrofida yashayotganlar e‘tirof etsagina, odam bolasi ma‘nan va jismonan yetuk shaxs — komil inson darajasiga ko‘tariladi. Umrim davomida har jihatdan komil insonlarni ko‘p uchratdim. Ularning har biri mamlakatimizda, xususan, Surxon vohasida mehnat munosabatlarini takomillashtirish, ijtimoiy va iqtisodiy hayotni tubdan yaxshilash, mehnat ahliga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, adolat tamoyillarini mustahkamlash, fuqarolarning jamiyatdagi o‘rni va faolligini oshirish borasida ko‘plab xayrli ishlarni amalga oshirishga munosib hissa qo‘shdilar. Bunday insonlar nafaqat o‘z turmush tarzi, izlanuvchanlik va fidoyilikka yo‘g‘rilgan mehnat faoliyatini bilan jamiyatdoshlariga o‘rnak bo‘ldilar, balki shu yo‘l bilan komillikka erishishning asl mohiyatini bugungi avlodlarga tushuntirib ketdilar. Angladimki, hayot atalmish buyuk ne‘matni ulug‘lab e‘zozlagan, ma‘no-mohiyatini to‘g‘ri tushunib qalban his etib yashayotganlar — kamolotga yetishgan insonlardir. Chunki el mehrini qozonish, xalqning e‘tirofiga sazovor bo‘lish, bir marta beriladigan umrning mohiyat va mazmunini anglab yashash — komillik belgisidir.

— **Samimiy hamda sermazmun suhbatigiz uchun rahmat!**

To‘ra QOBIL suhbatlashdi.